



YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTON: MILLIY TIKLANISHDAN MILLIY
YUKSALISH SARI QO'YILGAN QADAMLAR
Mavzusidagi ilmiy-maqola.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
OLTIARIQ SANOAT VA TEXNOLOGIYALAR TEXNIKUMI



Farg'ona – 2025

O'rinboyeva Sevaraxon Komilovna

Oltiariq Sanoat va texnologiyalar texnikumi (Farg'ona viloyati, Oltiariq tumani)



Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonning tarixiy davrlarda bosib o'tgan yo'llari, xalqimizning shonli o'tmishi va buguni to'grisida alohida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'z: milliy tilanish, milliy g'oya, qadryatlar, globallashuv, ilmiy-nazariy, amaliy-konstruktiv, daxildorlik, rennesans, mutafakirlar, ilm-fan.

Kirish.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari, belgi va xususiyatlari bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalarida, eng muhimi, xalqimizning ong-u tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Shu ma'noda, Harakatlar strategiyasi O'zbekistonni tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan zamon talablari asosida jadal rivojlantirishning ilmiy-nazariy, amaliy-konstruktiv asoslarini belgilab beradigan, taraqqiyotning yangi davri uchun mo'ljallangan muhim dasturiamaldir desak, ayni haqiqat bo'ladi. Bu keng ko'lamli, noyob hujjat davlatimizning barcha sohalarida yangicha yondashuv va mezonlarni joriy etish, aholining barcha qatlamlari o'rtasida tashabbuskorlik, tadbirkorlik, el-u yurtimiz taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyat va daxldorlik tuyg'usini oshirish, aniq tizim asosidagi samarali faoliyat tartibini joriy etishda tobora hal qiluvchi ahamiyat kasb etib borayotganini hozirgi kunda yurtimizda va xorijdagi nufuzli ekspert va tahlilchilar, jahon siyosat maydonida katta o'rin tutadigan atoqli davlat va siyosat arboblari keng e'tirof etishmoqda.

Bugun dunyoda shiddat bilan kechayotgan globallashuv jarayonlari hech bir mamlakatni chetda qoldirmayapti. Insoniyat o'zgacha bir muhit, o'zgacha sharoit va o'zgacha bir zamonda yashamoqda. Bu davrda turli xil xavf hatarlar va tahdidlar kuchayib bormoqda. Bu kabi vaziyatlarda uzoq davr mobaynida turli xil sinovlardan o'tgan, qancha zamonlarning mashaqatlarida toblanib borgan va pishkan har qanday millat va xalq birligi, hamjihatligini oshirish xalqning manfaatlari uchun xizmat qiladi. Bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan xalqimiz o'zining boy moddiy va nomoddiy



merosi, ko`xna tarixi bilan dunyoga tanilgan. O`zining buyuk mutafakirlari, shoirlari, faylasuflari va ilm-fanga xissa qo`shtan olim-u fuzalolarini yetishtirgan xalq sifatida dunyoga tanilgan. Bizning yurtimiz qadimiylarini sivilizatsi o`choqlaridan biri sifatida dunyoga tanilgan.

Xalqimiz uchbuyuk renessans davirlarini o`z boshidan o`tqazdi. Milodiy IX-XII asrlarda birinchi renessans, XIV-XVI aslarda ikkinchi renessans, XXI asr 20-yillaridan uchinchi renessans davrlarini shahdam qadamlar bilan bosib o`tti. O`z sohasining buyuk namoyondalari, o`zlarining necha asirlik say harakatlari va mehnatlari bilan jahon ilm-fan va madaniyatiga ulkan hissalarini qo`shtdi. Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Imom Buxoriy, Imom at-Termizi, Al-Farg`oniy, Mirzo Ulug`bek, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy kabi bir qancha alloma, faylsuf va o`z sohasining yetuk mutafakkirlari o`zlarining oltinga teng qimmatbaho ilimlari bilan o`zbek diyorini dunyo yuzining ko`rkiga aylantirdi. Buyuk mutafakkirlar nafaqat ilimga madaniyat, marifat va manaviyatga hattoki islom dinini ravnaqiga beqiyos xissa qo`shishgan. Buyuk mutafakkirlar tomonidan yaratilgan qiymati oltinga teng asarlar jahon xalqari madaniyati va ma`naviyati ravnaqiga ulkan xissa qo`shtdi. Hattoki Abu Ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari XIX asr boshlariga qadar yevropa meditsina oliygochlarda asosiy o`quv qo`llanma sifatida foydalanildi. Alisher Navoiyning Xamsa dostoni dunyoning oltmishto`rt tiliga tarjima qilindi. Xalqimiz tomonidan yaratilgan ma`naviy va madaniy meroslari dunyo xalqlari tomonidan yuksak e`tirofga sazovor bo`ldi. Hayot yo`llari bir tekkis bo`limgani kabi o`zbek xalqining tarixiy taraqqiyot davrida moddiy va manaviy madaniyati bir tekisda rivojlangan emas. Bunda biz uyg`onish, yuksalish bilan bir qatirda turli noqulayliklar va turg`unlik holatlarini ham kuzatishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlari necha ming asrlar davomoda forslar, mog`ullar, xunlar, arablar, dashti qipchoq va rus xalqi tomonidan talon toroj qilindi shunday vaziyatlarda ham o`zbek xalqi o`zligini, dinini, urf odatlarini, madaniyatini yo`qotmadni aksincha qattiyat bilan kurashdi va mustaqillikka erishdi.[1]

Yerlarimizni bosib olish uchun kelgan bosqinchilar qaysi millatga mansub bo`lmasin ularning maqsadi faqat bitta, boylik ortirish. Bu maqsad yo`lida tub yerli



ahilini madaniyatini, urf odatlarini, tilini, dinini va o`zligini toptab o`z madaniyatlarini olib kirishga urinishdi. Xalqimiz o`zligini yo`qotishga urinish holatlari juda ko`p uchradi. Mo`gular istilosи davrida shunday manfur ishlar amalga oshirildiki, butun bir shaharlar olov ichida qoldi, madaniy obidalar vayron qilib tashlandi, xalqning manaviyatini uyg`otishga urinadigan har qanday adabiyotlar yo`q qilindi.

Chor Rassiyasi tomonidan O`rta Osiyoga kirib kelishi bu xalqlarning madaniyati, manaviyati va iqtisodiyoti rivojlanishida orqada qolishiga olib keldi. Sovet davrida xalqimizning ma`naviy, madaniy hayoti komunistik mafkura iskanjasiga solindi. O`zbek xalqining milliy, ma`naviy qadryatlar, urf-odatlar oyoqosti qilindi, o`zbek tili ikkinchi darajali tilga aylantirildi. Millatning eng ilg`or namoyondalari, ziyolilar qatig`on qilindi.

Mustabit tuzumning zulmiga qaramasdan, o`lkamizda ijobjiy, bunyodkorlik ishlari ham bo`ldi. Xalqimizning fidokorona mehnati bilan ko`plab shaharlar bunyod etildi, zavod va fabrikalar qurildi, millionlab hektar yangi yerlar o`zlashtirildi. Maktablar, oliy va o`rta o`quv yurtlari ochildi, madaniy-ma`naviy muassasalar barpo qilindi, ilm-fan, adabiyot va san`at sohasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Bu davrni xalqimiz hayotidan o`chirib bo`lmaydi . O`zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta`kidlaganidek: “Bu yillar tarixi – bu bizning tariximiz, xalq tarixidir. Tarixdan voz kechib bo`lmaydi”. [2]

O`zbekiston xalqi XX asrning so`ngi o`n yilligi boshlarida sovet tuzumiga qaramlikdan ozod bo`lib, o`z taqdirini o`zi belgilash huquqini qo`lga kiritdi. 1991-yil 31-avgustda Prezident Islom Karimov Oliy Kengashning navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida O`zbekistonning davlat mustaqilligini e`lon qildi. Xalqimizning asriy orzusi ro`yobga chiqib, siyosiy mutely va zug`umdan qutildi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil davlat – O`zbekiston Respublikasi paydo bo`ldi.

Mustaqillik yillarida O`zbekistonda huquqiy-demokratik davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotiga o`tish maqsadida keng qamrovli demokratik islohatlar amalga oshirildi. Qo`lga kiritilgan yutuqlarimizga Yurtboshimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning “o`zbek modeli” asos bo`lib xizmat qildi.



Mustaqillik yillarda ona-Vatanimiz O`zbekiston jahon hamjamiyatiga qo`sildi. Dunyodagi yirik, rivojlangan mamlakatlar bilan siyosiy diplomatik, iqtisodiy, madaniy aloqalar o`rnatildi, o`zaro manfaatli aloqalar toboro kengayib bormoqda. O`zbekiston xalqaro muammolarni hal etishdagi qat`iy siyosati va amaliy faoliyati bilan xalqaro maydonda obro`-e`tibor qozondI. O`zbekiston jahon hamjamiyatida munosib o`rin egallagan, o`zining mustaqil ovoziga ega bo`lgan davlat darajasiga ko`tarildi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda amalga oshirilgan keng ko`lamli islohotlar milliy davlatchilik va suvevenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquqtartibotni, davlatimiz chegaralari daxilsizligini, jamiyat qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag`rikenglik muhitini taminlash uchun muhim poydevor bo`ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro`yobga chiqarish zarur shart-sharoitlar yaratdi. Iqtisodiy ma`muriy-buyuruqbozlikka asoslangan boshqaruв tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kridit siyosati puxta o`ylab olib borilgani makro iqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur`atlar bilan o`sishini, inflatsiyani pragnoz ko`rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta`minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlanish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o`zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g`oyaning ahamiyati toboro ortib bormoqda. O`zbekiston Respublikasi prezidentining 2021-yil 26-martdagи “Ma`naviy-ma`rifiy ishlar tizimini tubdan takkomillshtirish to`g`risida”gi PQ-5040-son qarorida bir qator vazifalar belgilab qo`yilgan jumladan ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan – milliy tiklanish sari g`oyasini keng targ`ib qilish orqali jamiyatda so`glom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirishdir. [3]



Milliy qadryatlar umuminsoniy qadryatlar bilan qancha uyg`unlashgan bo`lsa, ularning taraqqiy etishiga shu qadar keng imkoniyat ochiladi. Bu hayotiy haqiqatdir. Muxtasar qilib aytganda, milliy tiklanish millat taraqqiyoti tarixining birinchi bosqichida ma`lum bir obektiv va subektiv sabablar oqibatida boy berilgan salohiyatni qayta millat taraqqiyotiga yo`naltirish bilan bog`liq jarayondir. Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko`lamli islohatlarimizning samaradorligi, avvalo, xalq ma`naviyatining yuksalishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o`rganilishi va tadqiq etilishi, fan va ta`lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o`zgarishi va yuksalishi bilan bog`liqdir. Tafakkurning o`zgarishi va yuksalishi o`z navbatida milliy g`oyaning xalqimiz ongi va qalbidan qanchalik chuqur joy olayotganligi bilan o`lchanadi.[4]

Butun insoniyat kabi jahondagi har bir xalq va millat ham o`zining taraqqiyoti tongiga qarab intiladi. Tabiyatning buyuk hodisasi bo`lgan quyoshning xar erta saharda olamga yuz ko`rsatishi qanchalik go`zal va jozibali bo`lsa, dunyodagi xalqlar va davlatlar rivojida yangi tonglarning boshlanishi ham shu qadar fayizli va tarovatlidir.

Hozirgi kunda bizning xalqimiz hayotida ham yangi tong otmoqda. Bu – yangi taraqqiyot yuksalish tongidir. El –yurtimiz dunyodagi eng rivojlangan davlatlarga xos hayot darajasiga erishish, yangi jamiyat qurishdek ulug`vor maqsadlar bilan yashamoqda. Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, Yangi O`zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning asosiy maqsad-muddaosiga aylandi.

Yangi O`zbekiston tushunchasida mujassam bo`lgan xalq orzusi tarixiy taraqqiyotniong barcha davrlarida millatning yetuk vakillarini uni ro`yobga chiqarish yo`lida amaliy harakatlarga undab keldi.

Biz orzu qilgan va qat`iy intilayotgan Yangi O`zbekiston g`oyasi, avvalo, xalqimiz o`z milliy taraqqiyotning yangi davrlariga qadam qo`yganini, jahon hamjamiyatidan munosib o`rin egallagani, bu borada oldimizda ko`plab imkoniyatlar paydo bo`layotganini anglatadigan tushunchadir.

Yangi O`zbekiston – vatanimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, erkinlik va ozodlikning yangi davri, bunyodkorlik va farovonlik yo`lining yuqori bosqichidir.



1-

rasm. "Yangi O'zbekiston monumenti".

Yangi O'zbekiston –bu "Xalq manfaati hamma narsadan ulug'", degan ezgu g`oya amaliy ishlar o`z tasdig`ni topayotgan mamlakatdir. Yangi - yangi uy joylar, zamонавиј корхоналар, илм-фан, талим, тиббијот, маданият ва спорт масканлари, обод qishloq va shaxarlar yurtimiz chiroyiga chiroy qo`shayotgan tarixiy bir davirdir.

O`zbekistonda so`ngi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanlmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzlusiz ta`lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta`lim tarbiya berish malakali kadrlarni tayyorlash bo`yicha sezilarli islohatlar amalga oshirildi.

Ushbu islohatlar uchun davlat budgetidan so`ngo 6 yilda 4,3 baravarga oshirildi, maktabgacha ta`lim tashkilotlari soni 2016-yilga 5 211 tadan 2021-yilga kelib 19 316 taga, maktablar soni 9 719 tadan 12 289 taga yetqazildi, 11 yillik majburiy ta`lim qayta tiklandi yani majburiy ihtiiyoriy qilib belgilanib qo`yildi, maktab o`qituvchilarining ish yuklanmasi yengillashtirildi, majburiy mehnatga chek qo`yildi. Oliy talim muassasalari soni 2022-yilda 156 tani tashkil qilgan bo`lsa bugungi kunga kelib ularning soni 212 taga ko`paydi, ulardan 112 tasi davlat, 70 tasi xususiy Oliy Talim Muassasalaridir.



O`zbekiston ta`lim tizimi dunyo miqiyosida katta qiziqish uyg`otmoqda. Ko`pgina mamlakatlar tomonidan ham O`zbekistonda yaratilayotgan ta`lim tizimi “Ta`limning o`zbek modeli” deb e`tirof etildi.

Maorif va madaniyat barkamol insonni shakllantirishning eng muhim vositasidir. Shu boisdan ham mustaqil O`zbekistonda maorif va madaniyat ishlarini eng muhim va dolzarb soha sifatida rivojlantirishga alohida e`tibor berilmoqda.

Qaysiki millatda maorif va madaniyat rivojlansa shu xalq yuksaladi va yuksak marralarni qo`lga kiritadi. Shunday ekan ta`lim sohasini rivojlanishi Yangi O`zbekiston uchun qo`yigan yana bir ulkan qadamdir.

Takror va takror aytishga to`g`ri keladi: Yangi O`zbekiston tasodifiy hodisa, shunchaki dunyoga keladigan va o`tkinchi bir ijtimoiy hodisa emas. Bugungi kungankelib, ushbu tushuncha jamiyatimiz hayoti, xalqimiz qalbi va onidan chuqr joy olib islohatlar jarayoniga katta tasir ko`rsatmoqda. Shu munosabati bilan insoniyat tarixi va xalqlar taraqqiyotiga xos bir qonuniyatni esdan chiqarmasligimiz lozim.

Yangi O`zbekistonni bunyod etishda xalq birdamligi muhimdir. Xalq birlashsa biz albatta o`z maqsadlarimizga erishamiz va Yngi O`zbekistonni bunyod etamiz.

Davr - o`tadi, odamlar – qoladi. [5]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

- 1.<http://cyberleninka.ru>
- 2.Usmonov Q., Sodiqov M. O`zbekiston tarixi (1917-1991-yillar): Akademik litseyva kasb hunar kollejlari 1-bosqich o`quvchilari uchun darslik. T.: “Sharq”, 2013
3. <https://vetgov.uz>
- 4.Qamariddin U. O`zbekiston tarixi. Akademik litsey va kasb - hunar kollejlarining 2-kurs talabalari uchun darslik. “O`qituvchi” Nashiriyot-Matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2008.
- 5.Shavkat Mirziyoyev. Yangi O`zbekiston – Taraqqiyot Strategiyasi. “O`ZBEKISTON” Toshkent – 2022.